

**AGROSANOAT MAJMUIDA KICHIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI***QarMII Biznes va innovatsion menejment**kafedrası katta o'qituvchisi***Berdiyev J.Q***QarMII Talabasi***Safarov Sh**

**Annotatsiya:** *Agrosanoat tarmoqlari majmua tarzida faoliyat ko'rsatishida ularning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishda, ularni yangi ehtiyojlar bilan moslashtirishda sohalar bo'yicha funksional(gorizontal) kooperatsiya tuzish maqsadga muvofiq.*

Agrosanoat majmuida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik korxonalarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlagan korxonalar faoliyati ancha yaxshilanib bormoqda. Qolgan sohalar esa davlat tomonidan to'la erkinlik va imtiyozlar berilgan holda ularning mustaqil ishlashini rag'batlantirish lozim. Ularni rag'batlantirish tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy jihatdan makrodarajada va mikrodarajada amalga oshirilishi lozim. Davlat tadbirkorlarning barcha muammolari, jumladan, mikrodarajada tashkiliy-iqtisodiy masalalariga aralashish bozor iqtisodiyoti qonunlariga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ularning o'zaro birlashib harakat qilish mexanizmini shakllantirishda iqtisodiy qo'llab-quvvatlash lozim.

Agrosanoat majmui tarmoqlarida moliyaviy mablag'lar manbai turlicha, ammo ularning faoliyati bir-biriga bog'liqdir. Jumladan, infratuzilma sohasida moliyaviy resurslar tugatilgan shirkatlardan qolgan mol-mulk asosida aholiga va fermer hamda dehqon xo'jaliklariga ko'rsatilayotgan xizmatlar hisobiga to'lanayotgan mablag'lardan iborat. Qishloq xo'jalik mahsulolarini qayta ishlovchi korxonalarining moliyaviy manbai sotilgan tayyor mahsulotlardan tushgan mablag'lar bo'lib, ular ko'proq naqd pulga sotilganligi sababli ushbu sohada kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlik rivojlanish tendensiyasiga ega. Ammo yirik loyihalarni amalga oshirish va faoliyatini kengaytirishga yetmaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar moliyaviy mablag'i asosan davlat buyurtmasi asosida sotib olinayotgan mahsulotlardan tushgan pul mablag'laridir. Ushbu sohalarga davlat tomonidan imtiyozli yordam berilayotgan bo'lsa-da, ular tomonidan ko'rilayotgan daromad takror ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kamlik qiladi. Bunday holatga barham berishda agrosanoat majmui tarmoqlari o'z mablag'larini bosqichma-bosqich birlashtirish orqali hal qilishi mumkin. Buning uchun agrosanoat sohalari majmua tarzida faoliyat ko'rsatishi va undan o'z maqsadlari yo'nalishida foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda agrosanoat majmui sohalari tarqoq holda faoliyat ko'rsatmoqda. Bunga sabab birinchidan, xususiylashtirish natijasida tarmoqning mulki turli mulk va kasb

egalari qo'liga o'tishi, ikkinchidan, davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashda eski boshqaruv muhitidan to'liq qutilaolmaganligi, uchinchidan, agrosanoat sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari turli tashkilot va muassasalar tomonidan tartibga solinishi va moddiy ta'minlanishidir.

Agrosanoat tarmoqlari majmua tarzida faoliyat ko'rsatishida ularning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishda, ularni yangi ehtiyojlar bilan moslashtirishda sohalar bo'yicha funksional(gorizontal) kooperatsiya tuzish maqsadga muvofiq.

Qishloq xo'jaligida kooperatsiyani tuzish bo'yicha mamlakatimiz olimlari tadqiqot olib borishgan va takliflar bildirishgan. Jumladan, T.Farmonov, fermer xo'jaliklariga aylantirilgan shirkat xo'jaliklari o'rnida ishlab chiqarish va iste'mol yo'nalishlari bo'yicha "fermerlar kooperatsiyasini" tuzishni taklif etgan<sup>11</sup>.


SH. Ergashxodjayeva tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi, agrosevis va xizmat ko'rsatuvchi sohalarda kooperatsiyani rivojlantirishning marketing strategiyasi ishlab chiqilgan<sup>12</sup>. Bizningcha, agrosanoat majmui tarmoqlari bir-birini taqozo qilganligi uchun sohalarni o'zida birlashtirgan kooperatsiyani tashkil qilish hamda ushbu kooperatsiya yiriklashgan fermer xo'jaliklari va qayta ishlovchi kichik korxonalarining moddiy bazasi asosida infratuzilma korxonalarini yo'nalishlarida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Ushbu kooperatsiya agrosanoat majmui korxonalarida moliyaviy birlashuvi asosida tashkil etilib, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlash korxonalarining rivojlanishiga asos bo'ladi.

Kooperatsiya a'zolari agrosanoat majmuining kichik korxonalarini bo'lib, ular ishlab chiqarishning funksional yo'nalishlari bo'yicha birlashadi. Tashkil etilgan kooperatsiya kengashi qarori asosida amalga oshiruvchi tuzilma tomonidan ijro etiladi. Masalan, qishloq xo'jaligida 2500 ga yaqin qishloq xo'jaligi mashinalaridan foydalanilib, ularning barchasini bir kichik korxonaga tomonidan sotib olish imkoniyatiga ega emas. MMTPlarning qishloq xo'jaligi mashinalarini sotib olishga imkoniyati yetmaydi. Davlatda ham har bir hududda kompleks qishloq xo'jaligi mashinalari bilan ta'minlash imkoniyati yetarli emas. Davlat tomonidan faqat tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy imtiyozlar yordamida rag'batlantirilib turilishi mumkin. Bunday vaziyatda kichik korxonalar imkoniyatlarini birlashtirib, kooperatsiya asosida o'zini-o'zi ta'minlashi mumkin. Kooperatsiyaga a'zo bo'lmagan kichik korxonalardan esa to'liq xizmat haqi olinadi. Ushbudan kelib tushgan daromaddan kooperatsiyani tashkil etish va ijro etish xarajatlari olib qolinib, mulk egalari o'rtasida qo'shgan ulushiga ko'ra taqsimlanadi. Kooperatsiyaning bunday tartibi boshqa funksional birlashuvlarda ham qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

<sup>11</sup> Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida agrosanoat majmuni boshqarish tizimini takomillashtirish. O'zbekistonda agrar iqtisodiy islohotlar: erishilgan yutuqlar va ularning yechimlari. - T.: O'zBIITI, 2006. - 39 b.

<sup>12</sup>Ergashxodjayeva SH.D. Bozor raqobati sharoitida qishloq joylarda kooperatsiyani rivojlantirishning marketing strategiyasi: Iqtisod fanlari doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - T.: 2007. – 17 b.

Koopersiya kengashi qarorlarining ijrosini amalga oshiruvchi tuzilma a'zolar tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Kooperatsiya kengashi raisi, xududlar bo'yicha vakilliklar bilan ishlovchi bo'lim boshlig'i, xududlar bo'yicha vakillar a'zolar ichidan ochiq ovoz berish usuli bilan saylanadi. Sohalar bo'yicha kerakli mutaxassislar a'zolar ichidan hamda tashqi mehnat bozorida tanlov asosida qabul qilinadi. Kengashning ma'muriy tuzilmasi rais tomonidan tayinlanadi.



**Agrosanoat majmui kichik korxonalarida kooperatsiyani tashkil etish mexanizmi**

Ushbu kooperatsiyani tashkil etish asosida bozor talablariga mos agrosanoat majmui sohalar majmua tarzida samarali faoliyat ko'rsatadi hamda kompleks xizmatlar bozori shakllanadi. Shuningdek, kooperatsiya ASM kichik korxonalarida o'z-o'zini boshqarish, rivojlantirish tuzilmasiga aylanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev SH.M. Konstitusiya - erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Toshkent, 2018.

2. Rakhimov A. N., Makhmatkulov G. K., Rakhimov A. M. Construction of conometric models of development of services for the population in the region and forecasting them // The American Journal of Applied sciences. – 2021. – T.

3. Berdiyev J. Q. Theoretical fundamentals of enterprise economic power // Academia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 1-6.

4. Ergashev T. K., Berdiev J. Q. THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF USING MODERN MANAGEMENT METHODS IN THE HOTEL INDUSTRY // Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – C. 849-859.

5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi